O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI
BUYRUG‘I

5 mart 2026 yil. **862-son** Toshkent sh.

Toshkent davlat tibbiyot universitetining Zulfiya va Berdaq nomidagi maxsus stipendiyasi hamda ko‘krak nishoni uchun tanlangan nomzodlarni taqdirlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi “Atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini yoshlar o‘rtasida targ‘ib qilish hamda Adiblar xiyobonidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 502 -sonli qarori, Toshkent davlat tibbiyot universiteti (keyingi o‘rinlarda-Universitet) rektorining 2026-yil 3-fevraldagi “Universitetning Zulfiya va Berdaq nomidagi maxsus stipendiyasi hamda ko‘krak nishonini ta’sis etish to‘g‘risidagi Nizomini tasdiqlash va Zulfiya va Berdaq nomidagi maxsus stipendiya hamda ko‘krak nishoni sohiblarini aniqlash bo‘yicha tanlov o‘tkazish to‘g‘risida”gi 343-sonli buyrug‘i hamda 2026-yil 26-fevraldagi 8-sonli Ilmiy kengash qarori ijrosini ijrosini ta’minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor (T.A.Bobomuratov), Moliya-iqtisodiy ishlari bo‘yicha prorektor (N.L.Asqarov), Moliya-iqtisod boshqarmasi boshlig‘i (A.A.Suvanov), Bosh buxgalter (X.M.Mardanov):

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi “Atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini yoshlar o‘rtasida targ‘ib qilish hamda Adiblar xiyobonidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 502-sonli qarori, Universitetning Zulfiya nomidagi maxsus stipendiyasini ta’sis etish to‘g‘risidagi Nizomi talablariga muvofiq 2026-yil 20-fevralga qadar o‘tkazilgan tanlov natijalariga ko‘ra Universitetning Zulfiya va Berdaq nomidagi maxsus stipendiyasi sohibi bo‘lgan ilovada ismi shariflari keltirilgan talabalarga 2026-yil sentabr oyidan boshlab 2027-yil 30-iyunga qadar Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-yanvardagi 59-son qarori 2-ilovasining 2-bandiga muvofiq maxsus stipendiya to‘lanishini ta’minlasin;

tanlov natijalariga ko‘ra Zulfiya va Berdaq nomidagi ko‘krak nishoni sohibi bo‘lgan ilovada ismi shariflari keltirilgan talabalarga Zulfiya ko‘krak nishoni va uning guvohnomasi mart oyida Zulfiya tavallud topgan kunga bag‘ishlab

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: IT61786066

o‘tkaziladigan bayram tadbirida, Berdaq nomidagi ko‘krak nishoni va uning guvohnomasi may oyida Adiblar xiyobonida o‘tkaziladigan tadbirda tantanali ravishda topshirilishi va bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida bir marta to‘lanadigan pul mukofoti bilan taqdirlanishini ta’minlansin.

2. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish Moliya-iqtisodiy ishlari bo‘yicha prorektor (N.L.Asqarov) zimmasiga yuklatilsin.

Asos: Universitet rektorining 2026-yil 3-fevraldagi 343-sonli buyrug‘i hamda Universitet tomonidan ta’sis etilgan Zulfiya va Berdaq nomidagi maxsus stipendiyasi hamda ko‘krak nishoni uchun o‘tkazilgan tanlov yakunlari bo‘yicha fakultetlardan tavsiya etilayotgan nomzodlarni aniqlash uchun 2026-yil 19-fevralda o‘tkazilgan Ishchi guruh yig‘ilishi bayonnomasi

Rektor **Sh.A.Boymuradov**